



# Journal of Natural Sciences

**№2**  
**(2021)**

<http://www.natscienc.jspi.uz>



<u><b>ТАҲРИР ХАЙҶАТИ</b></u>	<u><b>ТАҲРИРИЯТ АҶОЛАРИ</b></u>
<p><b>Бош мухаррир –</b></p> <p>У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор</li><li>3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор</li><li>4. Султонов М-к.ф.д, доц</li><li>5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.</li><li>6. Хакимов К –г.ф.н., доц.</li><li>7. Азимова Д- б.ф.н.</li><li>8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц</li><li>9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.</li><li>10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц</li><li>12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чикарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчишиб босилганда манбаа аник кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www/natscience.jspi.uz](http://www/natscience.jspi.uz)

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA  
BERISHDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNING O'RNI**

Karimova F.S.<sup>1</sup>, Mullajonova Z.S.<sup>2</sup>, Alimov N.B.<sup>3</sup>

f.karimova.85@mail.ru

Jizzax Politexnika instituti

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagি bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish, tabiat, ularda atrof-muhitga nisbatan hurmat, ehtiyyotkorona munosabat va unga ma'suliyat bilan qarash hissini tarbiyalash, maktabgacha yoshdagи bolalarning ekologik tarbiya olishida milliy qadriyatlarimizning o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, milliy qadriyat, ekologik madaniyat, tabiatni asrash, atrof-muhitga munosabat.

**Аннотация:** Экологическое воспитание подростающего поколения, забота и чувство ответственности, забота за неё, роль национальных ценностей уважение к окружающей среде, природе в экологическом воспитании дошкольников.

**Ключевые слово:** экологическое образование, экологичекое воспитание, национальные ценность, экологическая культура, охрана природы, наблюдение природы.

**Annotation:** The article discusses the issues of environmental education of children in preschool educational institution. The problems of formation of preschool children's love to nature, to the world around them and to estimate and respect of the nature gifts. The is disclosed goals- objectives and nature of the environmental education of preschool age children.

**Key words:** environmental education, respect for the environment, ecological culture, familiarize the child with nature, the child's personality, environment, nature observation.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ekologik masalalar, tabiatda ro'y berayotgan noxush hodisalar oqibatini bartaraf etish, ro'y berishi mumkin bo'lган bunday vaziyatlarning oldini olish kabi dolzarb vazifalarga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Insonning tabiatga noto'g'ri munosabati natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda ekologik ta'lim- tarbiyaning o'rni nihoyatda katta.

Yurtimiz kelajagi yosh avlodlar qo'lida ekan, ularni har tomonlama yetuk, insonparvar, jamiyat va tabiat oldida ma'suliyatli shaxslar etib tarbiyalash eng ustuvor maqsadlarimizdan biridir.

Vatanimiz tabiatni, atrof-muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyyotkorona munosabat va unga mas'uliyat bilan qarash hissini maktabgacha yoshdagи har bir bola shaxsida

tarbiyalashimiz lozim. Maktabgacha yoshdagi bola o`z atrofidagi tabiiy-ijtimoiy muhit ta`sirida va mahallada o`rnatilgan axloqiy-ekologik tartibotlar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go`zal tabiatni, uning kelgusi holati aynan ularning atrof-muhitga bo`lgan munosabati orqali belgilanadi. [1. 36 b.]

Zaminimizdagi tabiiy manbalarni asrab-avaylashning eng muhim vositalaridan biri o`sib kelayotgan yosh avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabardor qilish, ularga ekologik tarbiya berish hisoblanadi. Tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lish, uning boyliklaridan unumli foydalanish, tevarak-atrofdagi muhitni yaxshilash, uning buzilishi, ifloslanishiga yul qo`ymaslik, tabiatga nisbatan axloqiy qimmatdagi hatti-harakatlarni amalga oshirish malaka va ko`nikmalari esa bolalikdan rivojlantirilsagina maqsadga erishish mumkin.

Bolaning maktabgacha ta`lim yoshi davrida tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan ongli ravishda tabiatga ijobiy munosabati tarkib topa boshlaydi va u ona tabiatga bo`lgan g`amxo`rligini orttira boradi. Yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an`analar, marosimlar, nodir qo`lyozmalar va davlat arboblarining ushbu sahaga oid faoliyatları mustahkam didaktik asos bo`lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog`lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o`rgatiladi.

Ekologik ta`lim-tarbiya maktabgacha ta`lim muassalarida bolalarni ma`naviy-ma`rifiy tarbiyalash, tabiat go`zalliklarini ko`ra bilishlarida katta yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishda unga toza kiyim kiydirish, yurish-turishining ozoda bo`lishini uqtirib turish ilk ekologik tarbiyaning asosi bo`ladi. Bola yashaydigan uy va uning atrofi toza, shinam va chiroyli bo`lsa, farzand ham shunday yashashga intiladi.

Ekologik ta`lim, ya`ni sog`lom turmush tarzini tashkil etishda tarbiyani ikki xil yo`l bilan amalga oshirish muhim: birinchidan, ekologik ta`lim-tarbiya oilada ota-onalar ishtirokida; ikkinchidan, maktabgacha ta`lim muassasasi, maktab, oliy va o`rta maxsus bilim yurtlarida olib borilishi lozim.

Ekologik ta`lim-tarbiya maktabgacha ta`lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar orasida beaho insonparvarlik munosabatini rivojlantiradi. Tabiatning barcha o`byektlariga nisbatan qiziqishini uy`g`otadi, atrof-muhitning shart-sharoitini o`rganish, unga g`amho`rlik qilish malakalarini rivojlantiradi. [2. 58 b.]

Maktab yoshidagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishda xalqimizning o`ziga xos milliy tarbiyasidan o`rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to`rt narsa-yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvgaga e`tiqod qo`yib, yozning eng jazirama kunlarida “Suv sayli” o`tkazgan. Ota-bobolarimiz “Suv- tabiat in`omi, hayot manbayi”, deb bejiz

aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qardlab, bog`-rog`lar yaratishgan. Biz esa suvdan not`og`ri foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug`ilishiga sababchi bo`ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to`la yetib bormasligi natijasida bugun O`rta Osiyo uchun ahamiyatli bo`lgan Orolning butunlay yo`qolish xavfi paydo bo`ldi.

Yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an`analar, marosimlar, nodir qo`lyozmalar va davlat arboblarining ushbu sohaga oid faoliyatlar mustahkam didaktik asos bo`lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog`lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o`rgatiladi. Milliy qadriyatlar millat shaxsining tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo`ladi. Milliy qadriyatlar-o`z millatidan, o`z yurtidan faxrlanish, o`zbek davlati fuqarosi ekanligidan g`ururlanish kabilardir. Milliy qadriyatlar negizini milliy g`urur, o`zbek millatining asosiy fazilatlari, xalqimizning ma`naviy merosi tashkil etadi. [3. 23 b.]

Bugungi kunda faqatgina chinakam ma`rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarni, bir so`z bilan aytganda, o`zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning inson hamjamiyatida o`ziga munosib obro`li o`rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shunday ekan, Ta`lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma`naviy-ahloqiy shakllantrish, uning qobiliyatlarini ro`yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Demak, yoshlar xulq-atvoriga milliy qadriyatlarni singdirish nafaqat ijtimoiy-falsafiy muammodir. Garchi qadriyatlarni nazariyasi falsafiy muammo sifatida 1960 yillardan boshlab sobiq ittifoq tadqiq etila boshlangan bo`lsada, bu qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatga faqat mustaqillikka erishilgandan keyin e`tibor berila boshlandi. Falsafiy talqinga ko`ra, qadriyatlarni inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo`lgan erkinlik, tinchlik, ijtimoiy tenglik, haqiqat, ma`rifat, go`zallik, hayotda va tabiatda bo`ladigan yaxshiligu- ezbilik kabi jamiki hislatu- fazilatlar yig`indisidir.

Davlat ta`lim standartlarida qadriyatlarni haqidagi bilimlar bugun ta`lim muddati mobaynida va uning hamma shakllarida berilishiga alohida ahamiyat berilgan. Shunday ekan, har bir maktabgacha yoshdagagi bolalarda qo`sinqaytish, raqs tushish, rasm chizish, me`morchilik, teatr to`g`risida tushunchalar hosil qilish, tarixga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega. Go`zallik olamiga oshno bo`lgan hech qachon undan ajralmaydi.

Xulosa qilib shuni ta`kidlash lozimki, boshlang`ich sinf o`quvchilariga ekologik ta`lim berishdagi ishlarni muvaffaqiyatli yo`lga qo`yish uchun o`qituvchilarni o`quvchilarga ekologik ta`lim berishga tayyorlash mexanizmini modernizasiyalash lozim. Buning uchun maktab bazasida ekologik o`quv-tajriba-

sinov maydonchalarini tashkil etish zarur. O'quvchilarning ekologik maydonchalardagi faoliyatlari, ekologik bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishi va ularga rioya etilishi, tabiatga nisbatan ehtiyyotkorona axloqiy munosabatning shakllanishiga imkon berishi kerak. O'qituvchi ilmiy-metodik jihatdan o'quvchilarga ekologik bilim berish mahoratiga ega bo'lsa, ta'lim samaradorligi oshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ismoilov A., Ahadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya.-Т.: “O'qituvchi”, 1997 у.
2. Umarova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish metodlari.// “Uzluksiz ta'lim”, 2004, 5-son.
3. KarimovaF., Mullajonova Z.S. (2020).Effectiveness of industrial waste in the production of construction products. *Science and Education*, 1(2).
4. Даминов Г., Султанов М., Абдурахманов Э., Каримова Ф. (2007). Селективный химический сенсор для мониторинга паров бензина и дизельного топлива из состава выхлопных газов двигателей внутреннего сгорания. Журнал «Химическая промышленность», 84(6), 317.
5. Каримова Ф. С., & Муллажонова, З. С. қ. (2021). КОМПОЗИЦИОННЫЕ ПОРТЛАНДЦЕМЕНТЫ С КОМПЛЕКСНЫМИ ДОБАВКАМИ ФОСФОЗОЛА И ГЛИЕЖА. *Science and Education*, 2(1), 87-92.
6. Яхшилик Ирсалиевич Гулбаев, Жавохирмирзо Камаридинович Исамиддинов, & Умид Доњиёрович Нореков (2021). СИНТЕЗ И ЭЛЕМЕНТНОГО АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ ТИОСЕМИКАРБАЗОНА МЕТИЛЭТИЛКЕТОНА С МОЛИБДЕНОМ. *Science and Education*, 2 (1), 117-122.
7. Яхшилик Ирсалиевич Гулбаев, Жавохирмирзо Қамариддин Ўғли Исомиддинов, & Мижгона Саттор Қизи Даоева (2020). СИНТЕЗ СЕМИКОРБАЗОНА ПАРАОКСИБЕНЗОАЛЬДЕГИДА С МОЛИБДЕНОМ. *Science and Education*, 1 (9), 100-104.
8. Каримова, С. Б., & Муллажонова, З. С. Қ. (2021). БЕНЗОТРИАЗОЛНИ ГОМОГЕН СИСТЕМАДА АЦЕТИЛЕН ГАЗИ АСОСИДА КАТАЛИТИК ВИНИЛЛАШ РЕАКЦИЯСИНИ ЎРГАНИШ. *Science and Education*, 2(1).
9. Ниёзова, Д. Б., Кодирова, Н. К., Курбанова, Л. М., Акбаров, Х. И., & Каттаев, Н. Т. (2019). Синтез и физико-химические свойства хитозан-кремнеземных нанокомпозиционных материалов. *Universum: химия и биология*, (6 (60)).